Обзор по теме Современные системы управления возбуждение синхронных машин и перспективы их развития (Формирования законов управления).....	841
Алиев Абдор Мураткулович	
O'zbekistonda turizm va servis sohasida davlat- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari.....	846
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish	850
Jaxongir Rabbimov	
Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari.....	855
Turobov Sherzod Alisherovich	
Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход.....	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari.....	864
Yusubboeva Dinora Quadrat qizi	
Iqlim o'zgarishlari va rekreatsiya turizmining kelajagi: muammolar va yechimlar	870
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbos Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	



XORIJIY MAMLAKATLARDA TIBBIYOT MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI VA ULARDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Jaxongirov Ilimdorjon Jahongirjon o'g'li

Farg'ona davlat texnika universiteti

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

jahongirov@inbox.ru

ORCID: 0009-0009-6702-7412

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish modellarini tahlil qilishga va ularni O'zbekistonda qo'llash istiqbollari bag'ishlangan. Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH va boshqa davlatlardagi davlat budjeti, tibbiy sug'urta, xususiy sektor hamda gibril moliyalashtirish tizimlarining afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqiladi. O'zbekistondagi sog'liqni saqlash tizimining hozirgi holati, mavjud muammolar hamda xorijiy tajribani joriy etish imkoniyatlari tahlil etiladi. Maqolada majburiy tibbiy sug'urta, xususiy-davlat sherikligi va xalqaro grantlardan foydalanish orqali O'zbekistonda tibbiy moliyalashtirish tizimini isloh qilish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: tibbiyotni moliyalashtirish, sog'liqni saqlash tizimi, tibbiy sug'urta, xususiy-davlat sherikligi, davlat budjeti, xorijiy tajriba, soliq tizimi, xalqaro grantlar.

Abstract: This article is devoted to the analysis of models of financing medical institutions in foreign countries and the prospects for their application in Uzbekistan. The advantages and disadvantages of the state budget, medical insurance, private sector and hybrid financing systems in Britain, Germany, the USA and other countries are considered. The current state of the healthcare system in Uzbekistan, existing problems and opportunities for introducing foreign experience are analyzed. The article provides proposals for reforming the healthcare financing system in Uzbekistan through compulsory medical insurance, private-public partnership and the use of international grants.

Key words: healthcare financing, healthcare system, medical insurance, private-public partnership, state budget, foreign experience, tax system, international grants.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу моделей финансирования медицинских учреждений в зарубежных странах и перспективам их применения в Узбекистане. Рассматриваются преимущества и недостатки государственного бюджета, медицинского страхования, частного сектора и гибридных систем финансирования в Великобритании, Германии, США и других странах. Будет проанализировано современное состояние системы здравоохранения Узбекистана, имеющиеся проблемы и возможности внедрения зарубежного опыта. В статье излагаются предложения по реформированию системы финансирования медицины в Узбекистане посредством обязательного медицинского страхования, государственно-частного партнерства и использования международных грантов.

Ключевые слова: финансирование медицины, система здравоохранения, медицинское страхование, государственно-частное партнерство, государственный бюджет, зарубежный опыт, налоговая система, международные гранты.

KIRISH

Bizga ma'lumki, jamiyatning muhim tayanchi bo'lgan tibbiyot sohasini, xususan tibbiyot muassasalari faoliyatini moliyalashtirish sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi va sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlarda tibbiyotni moliyalashtirishning turli modellari mavjud bo'lib, ular davlat budjeti, tibbiy sug'urta, xususiy sektor va xayriya mablag'lariga asoslanadi. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish jarayonida xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari keng ko'lamda o'rganilmoqda. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlardagi tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish modellarini tahlil qilish hamda ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari o'rganiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish muammolari M. Marmot, Friel, R. Bell, D. Morgan, R. Astolfi, M.C. Carnero, A. Gómez, W.H. Lai, S.C. Ho, T.Y. Weng, S.T. Huang kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. MDH davlatlarida iqtisodiyot va mahalliy sog'liqni saqlashni tashkil etish masalalari yetakchi olimlar N.A. Semashko, Yu.L. Shevchenko, V.I. Pokrovskiy, O.P. Shchepin, R.U. Xabriyev, E.V. Sherstneva, N.N. Bloxina, S.G. Goncharova va boshqalarning ilmiy ishlarida turli jihatlari bilan yoritilgan¹.

Xususan, sog'liqni saqlashning strategik va dolzarb muammolari, jumladan tibbiyot sohasini tartibga solish, boshqarish va moliyalashtirishga zamonaviy yondashuvlar iqtisodiyot sohasidagi quyidagi taniqli mutaxassislar — A.S. Akopyan, G.Ye. Ulumbekova, B.I. Nigmatulin, L.A. Gabuyeva, V.V. Almazovlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning tashkiliy shakllarini rivojlantirish genezisi esa N.I. Vishnyakova, V.Z. Kucherenko, V.I. Lisisina, V.A. Minyayeva, N.V. Polunina, A.V. Reshetnikova, V.I. Starodubova, O.P. Shepina va boshqalarning asarlarida yoritilgan².

O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish, jumladan ushbu soha faoliyatini moliyalashtirish hamda innovatsion jarayonlarni boshqarish masalalari S.S. G'ulomov, N.X. Jumayev, D.A. Raxmonov, N.Q. Yo'ldoshev, M.M. Tashxodjayev, B.K. G'ayibnazarov, Sh.N. Zaynutdinov, B. Mamatqulov, D.S. Qosimova, F. Ergashev, D. Raximova, A.O'. Sultonova kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng tahlil qilingan³.

Shunga qaramay, sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishda xorijiy tajribalarni o'rganish va ular asosida mamlakat sog'liqni saqlash tizimidagi bir qator muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, mazkur mavzu tadqiqot objekti sifatida tanlab olindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida tahlil va sintez, tizimli yondashuv, tizimli tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, taqqoslash, statistik hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda xalqaro amaliyotda tibbiyot sohasini moliyalashtirishning bir qator modellari mavjud. Quyida ularning ayrimlari keltirib o'tiladi:

1. Davlat budjetidan moliyalashtirish (Beverij modeli). Buyuk Britaniyaning Milliy sog'liqni saqlash xizmati ushbu modelning muhim namunasi hisoblanadi. Bu tizimda tibbiy xizmatlar asosan soliqlar orqali moliyalashtiriladi, bu esa aholiga aksariyat xizmatlarni bepul taqdim etish imkonini beradi. Davlat tibbiyot muassasalarining asosiy moliyaviy manbai bo'lib, xizmatlarning sifati va ularning universalligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Afzalliklari:

aholining keng qamrovi – barcha fuqarolar tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega;

1 M. Marmot, S. Friel, R. Bell, et al. Closing the gap in a generation: health equity through action on the social determinants of health. Lancet, 372 (2008), pp. 1661-1669; D. Morgan, R. Astolfi. Health Spending Continues to Stagnate in Many OECD Countries OECD Health Working Papers, No. 68. OECD Publishing, Paris (2014)

<http://dx.doi.org/10.1787/5jz5sq5qnwf5-en>; Carnero M.C., Gómez A. Optimization of Decision Making in the supply of Medicinal Gases used in Health Care. Sustainability, 11 (10) (2019), p. 2952, 10.3390/su11102952; Pedersen M.K., Larsen M.H. Distributed knowledge management based on product state models — the case of decision support in health care administration. Decis Support Syst, 31 (1) (2001), pp. 139-158, 10.1016/S0167-9236(00)00124-X; W.H. Lai, S.C. Ho, T.Y. Weng, S.T. Huang. Profile of nonsurgical root canal treatment under the national health insurance in taiwan in 2006. J Dent Sci, 4 (2009), pp. 187-190.

2 Семашко, Н.А. (ред.) Большая медицинская энциклопедия в 35 томах. Т.10 «Ж-З». — М.: Акционерное общество «Советская энциклопедия», 1929; Шевченко, Ю.Л. Здравоохранение России XX век / Ю.Л. Шевченко, В.И. Покровский О.П. Щепин; под ред. Ю.Л. Шевченко — М.: ГЭОТАР-МЕД, 2001. — 320 с.; Щепин, О.П. Общественное здоровье и здравоохранение: учебник / О.П. Щепин, В.А. Медик. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2011. — 592 с.; Акопян, А.С. Здравоохранение в рыночной России / А.С. Акопян // Общественные науки и современность. — 2004. — № 6. — С. 56.; Улумбекова Г.Э. Состояние и деятельность системы здравоохранения в РФ, 2011 [Электронный ресурс] / Г.Э. Улумбекова, Б.И. Нигматулин. URL: <http://www.proatom.ru/files/demografia.pdf>. — С. 85; Габуева, Л.А. Основные подходы к развитию государственно-частного партнерства в региональных программах здравоохранения. / Л.А. Габуева, В.В. Алмазов // Здравоохранение. — 2014. — № 7. — С. 15-17; Лисицын, Ю.П. История медицины: учебник. — 2-е изд. / Ю.П. Лисицын. — М.: ГЭОТАРМедиа. — 2008. — 393 с.

3 Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. —Т: IQTISODIYOT, 2019.; Ғайибназаров Б.К., Қутлиев О.А., Абдувалиева Ё.Р. Соғлиқни сақлаш миллий ҳисоблари (ССМХ) ни шакллантириш мақсадида соғлиқни сақлаш тизимини тадқиқ қилиш. Монография. — Т: 2015.; Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент. — Т.: Академия, 2006. — С.267; Зайнутдинов Ш.Н. Теория пять «И» или новая система факторов процветания государства. LAP LAMBERT Academic Publishing RU, 2018. — С. 49.; Маматкулов Б. Жамоат саломатлиги ва соғлиқни сақлашни бошқариш: Тиббиёт олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. — Тошкент, 2011 — 675 б.; Маматкулов Б., Қосимова Д. Соғлиқни сақлаш менежменти ва иқтисодиёти: Дарслик. — Т.: «Voriz-nashriyot». -2015. 240 б.; Ф.Эргашев, Д.Раҳимова, А.Сағдуллаев, О.Парпиев. Инновацион менежмент. Дарслик. —Т.: Академия, 2005.; Султонова А.Ў. Соғлиқни сақлашни бозор муносабатлари орқали тартибга солишининг халқаро амалиёти: и.ф.н. дисс. автореферати. — Т: ТДИУ, 2001 й.



ijtimoiy tenglik – daromad darajasidan qat'i nazar, tibbiy xizmatlarga teng erishish imkoniyati;
iqtisodiy samaradorlik – xarajatlarning markazlashtirilgan nazorat ostida bo'lishi.

Kamchiliklari:

yuqori soliq yuki;

tibbiy xizmatlarga navbatlar va kechikishlar;

davlat budjetiga bog'liqlik tufayli xizmat sifati pasayishi xavfi.

2. Tibbiy sug'urta modeli (Bismark modeli). Germaniya, Fransiya va Yaponiya kabi davlatlarda qo'llaniladigan bu model tibbiy xizmatlarni davlat va xususiy tibbiy sug'urta fondlari orqali moliyalashtirishga asoslanadi. Ish beruvchilar va ishchilar majburiy sug'urta badallarini to'laydi, bu esa tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Afzalliklari:

xizmatlar sifati yuqori;

xususiy sektor bilan sog'lom raqobat mavjud;

bemorlarning xizmat turini tanlash erkinligi mavjud.

3. Xususiy moliyalashtirish modeli. AQSHda tibbiy xizmatlar asosan xususiy sug'urta va bevosita shaxsiy to'lovlar orqali moliyalashtiriladi. Affordable Care Act (Obamacare) qonunchiligi sug'urta qamrovini kengaytirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, xususiy sug'urta kompaniyalari moliyalashtirishda asosiy rol o'ynaydi.

Afzalliklari:

innovatsiyalarning tez rivojlanishi;

yuqori sifatli xizmatlar;

bozor mexanizmlari asosidagi raqobat muhitining shakllanishi.

Kamchiliklari:

past daromadli qatlamlar uchun xizmatlarga erishishning cheklanishi;

yuqori xarajatlar, ayniqsa sug'urtasiz fuqarolar uchun;

tizimning murakkabligi va boshqaruvdagi noaniqliklar.

4. Gibrid modellar. Kanada va Avstraliya tajribasi asosida ishlab chiqilgan bu model davlat va xususiy moliyalashtirishning aralash shaklini o'z ichiga oladi. Asosiy xizmatlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi, qo'shimcha xizmatlar esa xususiy sug'urta yoki to'lovlar asosida amalga oshiriladi. Bu model ikki tizimning afzalliklarini birlashtiradi, biroq murakkab boshqaruv va muvozanatni saqlash talab etiladi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi asosan davlat budjetiga tayanadi. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tibbiy xizmatlar aholining asosiy qatlamiga bepul taqdim etiladi. Shu bilan birga, xususiy sektorning ulushi so'nggi yillarda ortib bormoqda. 2017–2021-yillarda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha qabul qilingan Davlat dasturlari, jumladan "Sog'lom avlod" va "Obod yurt" dasturlari tibbiy xizmatlar sifati va infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan.

Shunga qaramay, amaldagi tizim quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

davlat budjetiga yuqori tayanish tufayli moliyaviy barqarorlikning pastligi;

tibbiy sug'urta tizimining hali yetarli darajada rivojlanmaganligi;

shaharlik va qishloq aholisi o'rtasida xizmat sifati va imkoniyatlarida sezilarli tafovutlar mavjudligi.

Xorijiy tajribaga asoslangan holda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish uchun bir qator istiqbolli yo'nalishlarni amalga oshirish mumkin. Ulardan biri majburiy tibbiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etishdir. Germaniya va Fransiya tajribasi asosida ishlab chiqilgan ushbu model moliyaviy yukni davlat, ish beruvchilar va fuqarolar o'rtasida taqsimlash imkonini beradi. Bu orqali tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, davlat budjetiga tushadigan moliyaviy bosimni kamaytirish hamda xususiy sektorning faol rivojlanishiga sharoit yaratish mumkin bo'ladi. Ushbu tizimni joriy etishda mustaqil sug'urta fondlarini tashkil etish, aholi tomonidan to'lanadigan sug'urta badallarining hajmini aniqlash, shuningdek, xizmatlar sifatini nazorat qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yish kabi chora-tadbirlarni ko'rish zarur.

Yana bir istiqbolli yo'nalish – davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmidan foydalanishdir. Avstraliya va Kanada tajribasiga asoslanib, sog'liqni saqlash infratuzilmasini xususiy sektor bilan hamkorlikda rivojlantirish mumkin. Bu yo'nalishda xususiy sektor tomonidan yangi shifoxonalar va diagnostika markazlarini barpo etish, davlat tomonidan esa ushbu muassasalarda ko'rsatilayotgan ayrim xizmatlarni moliyalashtirish amaliyoti keng qo'llaniladi. Bunday hamkorlik xizmatlar sifatini oshirish, raqobat muhitini kuchaytirish va natijada sog'liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Davlat moliyalashtirish jarayonlarini optimallashtirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Buyuk Britaniya modeliga tayangan holda, tibbiy xizmatlarning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, davlat mablag'larini shaffof va natijadorlikka asoslangan tarzda taqsimlash, tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish orqali sog'liqni saqlash tizimini yanada samarali qilish mumkin. Bu yondashuv sog'liqni saqlash xarajatlarning oqilona boshqarilishini ta'minlab, resurslardan foydalanish darajasini oshiradi.

Shuningdek, xayriya fondlari va xorijiy grantlar imkoniyatlaridan foydalanish ham dolzarb hisoblanadi. Afrika va Osiyo davlatlari tajribasiga ko'ra, xalqaro donor tashkilotlari va xayriya mablag'lari sog'liqni saqlash



tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham bunday tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, jumladan, grantlar jalb qilish, zamonaviy texnologiyalar va uskunalar yetkazib berishda xalqaro yordamdan foydalanish orqali tibbiy xizmatlar sifatini va ularning aholiga yetkazilish darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy mamlakatlarda tibbiyotni moliyalashtirish modellari O'zbekiston uchun muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat budjetiga tayanishdan tashqari, tibbiy sug'urta, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro grantlardan keng foydalanish O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligi va sifatini oshirishga ko'maklashadi. Ushbu modellarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aholining iqtisodiy holati, infratuzilma darajasi va qonunchilik bazasining tayyorgarlik holatini hisobga olish zarur. Xorijiy tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali O'zbekistonda barqaror va samarali tibbiy moliyalashtirish tizimini shakllantirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston uchun quyidagi tavsiya va takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Tibbiy sug'urta tizimini joriy etish bo'yicha pilot loyihalarni tizimli amalga oshirish:

Toshkent va Samarqand kabi yirik shaharlarda majburiy tibbiy sug'urta tizimini sinov tariqasida joriy etish, natijalariga asoslangan holda bosqichma-bosqich kengaytirish;

sug'urta badallari miqdorini aholining daromad darajasi va ijtimoiy holatiga mos holda shakllantirishga e'tibor qaratish.

2. Tibbiy xizmatlar sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish:

tibbiy xizmatlar sifatini baholaydigan mustaqil organlar tashkil etish;

tibbiyot muassasalarida xalqaro standartlarga mos akkreditatsiya tizimini joriy etish.

3. Xalqaro tajribadan tizimli foydalanish:

xorijiy ekspertlar ishtirokida tibbiy moliyalashtirish tizimini isloh qilishga qaratilgan treninglar va seminarlarni tashkil etish;

xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish, grant va texnik yordam dasturlaridan samarali foydalanish.

Yuqoridagi choralar asosida O'zbekistonda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlash xizmatlarining barqarorligi va sifati bo'yicha yangi bosqichga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Marmot, S. Friel, R. Bell, et al. Closing the gap in a generation: health equity through action on the social determinants of health. *Lancet*, 372 (2008), pp. 1661-1669.
2. D. Morgan, R. Astolfi. Health Spending Continues to Stagnate in Many OECD Countries OECD Health Working Papers, No. 68. OECD Publishing, Paris (2014)
3. M. Marmot, S. Friel, R. Bell, et al. Closing the gap in a generation: health equity through action on the social determinants of health. *Lancet*, 372 (2008), pp. 1661-1669.
4. D. Morgan, R. Astolfi. Health Spending Continues to Stagnate in Many OECD Countries OECD Health Working Papers, No. 68. OECD Publishing, Paris (2014) <http://dx.doi.org/10.1787/5jz5sq5qnwf5-en>.
5. Carnero M.C., Gómez A. Optimization of Decision Making in the supply of Medicinal Gases used in Health Care. *Sustainability*, 11 (10) (2019), p. 2952, 10.3390/su11102952.
6. Pedersen M.K., Larsen M.H. Distributed knowledge management based on product state models — the case of decision support in health care administration. *Decis Support Syst*, 31 (1) (2001), pp. 139-158, 10.1016/S0167-9236(00)00124-X.
7. W.H. Lai, S.C. Ho, T.Y. Weng, S.T. Huang. Profile of nonsurgical root canal treatment under the national health insurance in taiwan in 2006. *J Dent Sci*, 4 (2009), pp. 187-190.
8. Семашко, Н.А. (ред.) Большая медицинская энциклопедия в 35 томах. Т.10 «Ж-З». — М.: Акционерное общество «Советская энциклопедия», 1929.
9. Шевченко, Ю.Л. Здравоохранение России XX век / Ю.Л. Шевченко, В.И. Покровский, О.П. Щепин; под ред. Ю.Л. Шевченко - М.: ГЭОТАР-МЕД, 2001. - 320 с.
10. Щепин, О.П. Общественное здоровье и здравоохранение: учебник / О.П. Щепин, В.А. Медик. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2011. - 592 с.
11. Акопян, А.С. Здравоохранение в рыночной России / А.С. Акопян // Общественные науки и современность. - 2004. - № 6. - С. 56.; Улумбекова, Г.Э. Состояние и деятельность системы здравоохранения в РФ, 2011 [Электронный ресурс] / Г.Э. Улумбекова, Б.И. Нигматулин. URL: <http://www.proatom.ru/files/demografia.pdf>. - С. 85.
12. Габуева, Л.А. Основные подходы к развитию государственно-частного партнерства в региональных программах здравоохранения. / Л.А. Габуева, В.В. Алмазов // Здравоохранение. - 2014. - № 7. - С. 15-17; Лисицын, Ю.П. История медицины: учебник. - 2-е изд. / Ю.П. Лисицын. - М.: ГЭОТАРМедиа. - 2008. - 393 с.



13. Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. –Т: IQTISODIYOT, 2019.
14. G'ayibnazarov B.K., Qutliyev O.A., Abduvaliyeva Yo.R.Sog'liqni saqlash milliy hisoblari (SSMH) ni shakllantirish maqsadida sog'liqni saqlash tizimini tadqiq qilish. Monografiya. – T: 2015.
15. Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент. – Т.: Академия, 2006. – С.267.
16. Зайнутдинов Ш.Н. Теория пять «И» или новая система факторов процветания государства. LAP LAMBERT Academic Publishing RU, 2018. – С. 49.
17. Mamatqulov B. Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish: Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2011 – 675 b.
18. Mamatqulov B., Qosimova D. Sog'liqni saqlash menejmenti va iqtisodiyoti: Darslik. – Т.: «Voriz-nashriyot». -2015. 240 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
